



Expression of family relations in proverbs (based on German, Russian, and Uzbek proverbs)

Mansur KUCHIBOEV¹, Shukhratjon UTAYEV²

Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2024

Received in revised form

10 April 2024

Accepted 25 April 2024

Available online

25 July 2024

Keywords:

traditions and customs,
linguoculturology,
cultural-historical,
national characteristics,
paremiological basis,
religious beliefs,
life and morality,
norms of behavior,
etc.

ABSTRACT

The article explores the expression of family relationships based on German, Russian, and Uzbek proverbs. In different nations, family relationships and couple relationships are interpreted differently in proverbs using examples. The purpose of analyzing such proverbs expressing family relationships in the German, Russian, and Uzbek languages, from the point of view of comparative linguistics and culture, is to determine the common (universal) and national characteristics of peoples belonging to different cultures and traditions.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3-pp182-186>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Maqollarda oilaviy munosabatlarning ifodalanishi (nemis, rus va o'zbek maqollari asosida)

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

an'ana va urf-odatlar,
lingvomadaniyatshunoslik,
madaniy-tarixiy,
milliy xususiyatlar,
paremiologik fondi,
diniy e'tiqodlar,
hayot va axloq,
xulq normalari va h.

Maqolada oilaviy munosabatlarning ifodalanishi nemis, rus va o'zbek maqollari asosida o'rganilgan. Turli millatlarda oilaviy munosabatlar, er-xotin munosabatlari maqollarda turlicha talqin etilganligi misollar orqali yoritiladi. Nemis, rus va o'zbek tillaridagi oilaviy munosabatlarni ifodalaydigan bunday maqollarning qiyosiy lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazardan tahlil qilish maqsadi turli madaniyat, an'ana va urf-odatlarga mansub xalqlarga xos umumiy (universal) va milliy o'ziga xosliklarni aniqlashdir.

¹ Teacher, Department of Foreign Languages, Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute.

² Teacher, Department of Foreign Languages, Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute.

Выражение семейных отношений в пословицах (на материале немецких, русских и узбекских пословиц)

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

традиции и обычаи,
лингвокультурология,
культурно-исторические,
национальные
особенности,
паремиологическая
основа,
религиозные верования,
быт и нравственность,
нормы поведения и т.д.

В статье исследуется выражение семейных отношений на основе немецких, русских и узбекских пословиц. У разных народов семейные отношения и отношения пары трактуются в пословицах по-разному на примерах. Цель анализа таких пословиц, выражающих семейные отношения в немецком, русском и узбекском языках, с точки зрения сравнительного языкознания и культуры заключается в определении общих (универсальных) и национальных особенностей народов, принадлежащих к разным культурам и традициям.

Maqol xalq og'zaki ijodining juda muhim shakliga, ayni zamonda chuqur mazmuniga ega muxtasar, lo'nda janriga mansubdir. U ko'p asrlar davomida xalqning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy tajribalari, hayotiy kuzatuvlari asosida yuzaga keladi. Maqollar o'z ijtimoiy funksiyalariga ko'ra asosan keng xalq ommasining, ayrim hollarda esa ba'zi ijtimoiy tabaka yoki guruhlarining dunyo- qarashlarini ifodalaydi.

Rus yozuvchisi L.N.Tolstoy maqollarning xalq hayoti, ruhiy dunyosi bilan naqadar yaqinligi haqida to'xtalib "har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalqni ko'raman", – deb yozgan edi. Genial yozuvchining bu so'zlari maqollar tabiatini, ularning xalq hayotida tutgan o'rnini ifodalaydi. Maqolga ta'rif berib, uning fazilatini filologiya fanlari doktori, professor B. Sarimsoqov quyidagicha tasnif etgan edi: 1. Maqol hamma vaqt aniq, tugal fikrni anglatadi. Bu fikr qat'iy, lo'nda xulosa sifatida ifodalanadi. Fikriy lo'ndalik esa fikrni ixcham ifodalashga imkon beradi, yaxlit kompozitsiya asosida yuzaga keladi. 2. Maqol uchun ma'lum bir fikrni mantiqiy ixchamlikda va qat'iy qutbiylikda ifodalash xarakterlidir. 3. Maqollar ham o'z va ko'chma ma'noda qo'llanish imkoniyatiga egadir. Bu maqollarning doirasini, qo'llanish xususiyatining tematik chegarasini kengaytiradi. Maqollar mazmunan g'oyat kengdir. Bu xususiyat maqolga o'z-o'zidan katta semantik ko'chimlar imkonini beradiki, natijada birgina maqolning turli vaziyatda turlicha mazmunda qo'llash mumkin. Mana shu xususiyat maqolga barhayotlik bag'ishlaydi.

Ijtimoiy hayotning biror sohasi yo'qki, u maqollarda o'z aksini topmagan bo'lsin. Ijtimoiy munosabatlar, jumladan, oilaviy munosabatlar har qanday xalq tilidagi maqollarda o'z yorqin ifodasini topadi. Asrlar jarayonida shakllangan bunday munosabatlarda muayyan xalqlarning er va xotin, erkak va ayollar munosabatlaridagi normalari o'z aksini topadi va ularda muayyan xalq madaniy-tarixiy, milliy xususiyatlari, an'analari, urf-odatlar, diniy e'tiqodlari jamlangan. Shu nuqtai nazardan har qanday tilning paremiologik fondi inson turmush faoliyatining turli jihatlarini aks ettiradigan hayot va axloq, xulq normalarining ensiklopediyasi vazifasini ham bajarib kelgan.

O'zida oilaviy munosabatlarning normalarini va steriotiplarini saqlab kelayotgan bunday maqollar turli xalqlarning oilaviy munosabatlardagi milliy xususiyatlarini tarixiy taraqqiyot jarayonida o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Nemis, rus va o'zbek tillaridagi oilaviy munosabatlarni ifodalaydigan bunday maqollarning qiyosiy lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazardan tahlil qilishimizdan maqsad turli madaniyat, an'ana va urf-odatlarga mansub xalqlarga xos

umumiy(universal) va milliy o'ziga xosliklarni aniqlashdir. O'zbek xalqida oilaviy turmush munosabatlari juda qadim zamonlardan boshlab muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bunday munosabatlar birinchi navbatda musulmon dini qonun qoidalari asosida boshqarib turilgan. Sha'riy nikohning mustahkamligi oilada odatda erkak hukmronligiga asoslangan va bunday hukmronlik ular turmushidagi diniy, ijtimoiy, ahloqiy, ma'naviy aqidalar orqali ta'minlangan. Masalan, musulmon dinining asosi hisoblangan "Qur'on"da oilaviy hayotdagi er va xotinning burchlari atroflicha belgilab qo'yilgan. Shunga qaramasdan, murakkab oilaviy turmush tarzi asrlar jarayonida oddiy xalq orasida "yaxshi" va "yomon" xotin haqida ko'plab dono maqol va iboralarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Ularda oilaviy hayotda ayolning mijg'ovlik, tannozlik, befarasotlik, isrof qilish singari salbiy sifatlari qattiq qoralangan va bunday illatlarning yo'q qilinishida urning qattiqqo'l oila boshlig'i bo'lishi lozimligi ta'kidlangan.

O'zbek maqollaridan misollar:

Erni er qiladigan ham xotin, qora yer qiladigan ham xotin.

Biyaning yugurigi yaxshi, xotinning epchili.

Ayolning sarishtasi – ro'zg'orning farishtasi.

Ayolning sunbuli – yigitning dili.

Ayollarga, oilaga bo'lgan bunday munosabatlar rus xalq maqollarida ham o'ziga xos ravishda o'z aksini topgan:

Добрая жена – веселье, а худая – злое зелье.

Добрая жена дом сбережет, плохая – рукавом расстрясет.

Жена бранчива – мужу позор.

Жена ни гусли: поиграв, на стену не повесишь.

Жена не коза, дети не пчелы.

Семья крепка ладом.

Мужем жена хороша.

Мужик без бабы पुще малых деток сирота.

Ayollarning mol davlatiga uchib ularga uylanish kuyidagi maqollar orqali qattiq kinoya ostiga olinadi: *женины деньги петухом запоят; жениным богатством века не проживешь; жениным добром не сведешь дом.*

Rus xalq maqollarida oila boshlig'i urning tashqi ko'rinishi, yoshi unchalik ahamiyatli emasligi *не найдешь паренька – выйдешь и за пенька*. К стар муж, так удушлив, молод, так и не сдружлив maqollari orqali ifodalansa, uning eng muhim fazilatlari sifatida boy-badavlatligi yoki oilaning farovonligi uchun mehnatsevar bo'lishligi birinchi o'ringa qo'yiladi: *для щей люди женятся, для мяса замуж идут; не молодца любят – денежку*. Kuyov va kelin tanlashda keyinchalik afsuslanmaslik uchun xalq tomonidan

женихи что лошади, – товар темный; выбирай не невесту, а сваху singari maqollar yaratilgan.

Rus xalq maqollarida ayollar go'zalligi bir paytning o'zida ham maqtalishini, ham kamsitilishini ko'ramiz: *Красная девка в хороводе, что маков цвет в огороде. Красотой сыт не будешь Красота разума не придаст. Красную жену не в стенку врезать.*

С лица воду не пить, умела бы пироги печь.

Maqollarda ayollarning ro'zg'orjonligi, tejamkorligi, jonkuyarligi, eriga itoatkorligi va hurmati *жена мужу пластырь, а он ей пастырь; жена пряди рубашки, а муж вей гуж* kabi maqollarda o'z aksini topgan.

Ayrim maqollarda esa oilaviy juftliklardagi nomunosiblik jonivor va hayvonlarga qiyoslanishini ham ko'ramiz *женится рак на лягушке; женится медведь на корове*.

Ayrim rus maqollarida nikoh er uchun ham, xotin uchun ham manfaat keltiruvchi xo'jalik bitimi ekanligi ham uqtiriladi. Agar xotin yomon erga duchor bo'lib qolsa, u peshonasiga yozilgan qismatiga itoat qilib, erining barcha zulmlariga chidashi lozimligi uqtiriladi.: *стерпится – слюбится; не тужила, не плакала – пошла Марфа за Якова*.

Nemis tilidagi maqollarda ham oilaviy turmushda shu xalqqa mansub, o'ziga xosliklar, urf odat va an'analar o'z aksini topgan. *Die Frau ist zu Hause am schlossen* (букв. Женщина дома закрыта).

Wer sein Weib schlägt, dem bessert Gott die Nahrung (букв. Кто бьет жену, тому лучше еда). *Weiber und Pferde wollen geschlagen sein* (букв. Жены и лошади хотят быть побитыми). Bunday maqollarda oilaviy turmushda er hukmronligi e'tirof etilsa-da, ayol kishiga bepisnd munosabatda bo'lish qoralanadi. *Wer da schlägt sein Weib, trifft seinen eigenen Leib* (букв. Кто бьет свою жену, попадает в собственное тело); *Wer in seinen Hause Frieden haben will, der muss tun, was die Frau will* (букв. Кто в своем доме хочет иметь радость, тот должен делать то, что хочет женщина).

Germaniyada qadimiy an'analarga ko'ra oilaviy hayot ikir-chikrlari o'zgalar ko'zidan yiroqda bo'lishi lozim *Wenn Mann und Frau sich streiten, so bleibe du im Weiten* (букв. Если мужчина и женщина ссорятся, ты оставайся в стороне).

Oilaviy hayotning muqaddasligi quyidagi maqollarda o'z aksini topgan: *Wer kein Weib hat, der hat auch kein Haus* (букв. У кого нет жены, нет дома); *Mann ohne Weib, Haupt ohne Leib* (букв. Мужчина без жены, голова без тела).

Nemis tilida ayol go'zalligini ijobiy baholovchi maqollar ko'pchilikni tashkil qiladi: *Eine schöne Frau ist immer recht* (букв. Красивая женщина всегда права); *Eine schöne Frau will jeder Küssen* (букв. Красивую женщину все хотят поцеловать); *Ein schönes Weib braucht keine Schminke* (букв. Красивая женщина не нуждается в косметике); *Wer eine schöne Schwester hat, bekommt bald einen Schwanger* (букв. У кого красивая сестра, тот получит скоро зятя); *Rote Wangen, weisse Zähne, machen alle Mädchen schön* (букв. Красные губки, белые зубки делают девушку красивой).

Ammo nemislar ayol go'zalligida xavfli va shaytoniy bir xislatni ham ko'radilar: *Ein schönes Weib hat den Teufel im Leib* (букв. красивая жена – чёрт в теле), *Frauen sind wie Kanstantin: aussehen schön und innen schlecht* (букв. Женщина как бриллиант: выглядит красиво, а внутри дьявол).

Ammo ayolning tashqi ko'rinishining go'zalligi uning ma'naviy go'zalligi bilan uyg'unlashuvi ham maqollarda alohida ta'kidlanadi. *Schönheit und Verstand sind selten verwandt* (букв. Красота и ум редко родственны); *Schön Gestalt verliert sich bald* (букв. Красивая фигура скоро потеряется); *Schönheit vergeht, Tugend besteht* (букв. Красота проходит, добродетель остаётся). Go'zallikdan tashqari ayol kishining jonkuyarligi, ro'zg'orjonligi, itaotkorligi, ochiq ko'ngilliligi yuqori baholanadi.: *Wo die Frau wirtschaftet, wächst der Speck am Balken* (Где женщина хозяйственна и балки салом обрастают); *Die Schönheit währt bis zur Hochzeit, der Verstand aber bis zum Ende* (букв. Красота сохраняется до свадьбы, но разум до конца).

Nemis xalq maqollarida erkaklar go'zalligi, fazilatlar haqida gap yuritilmasa-da, nomunosib nikohga nisbatan bir xil munosabatni ko'ra olmaymiz. Masalan, *Alter Mann, gutter Rat* (букв. Старый муж, хороший совет); *Junge Frau und alter Mann sind ein trauriges Gespann* (букв. Молодая женщина и старый мужчина – жалкая упряжка); *Ein alter Mann, der freit, ist nicht gescheit* (букв. Старый мужчина, который сватается, не умный).

Oilaviy hayotning moddiy jihatlari nemis maqollarida alohida ta'kidlanadi: *Wenn der Arme heiraten will, ist ihm die Nacht zu kurz* (букв. Если бедный женится, ему ночь коротка).

Nemis va rus maqollarida nikohga erkin munosabat, ajralishga nisbatan salbiy munosabatni ham ko'ramiz: *женидьба есть, а разженидьбы нет; худой non свенчает, а хорошему не развенчатъ; жениться не напастъ, как бы замужем не пропастъ; Heiraten ist kein Unglück, aber wie meidet man Unglück nach der Heirat* (букв. Жениться не несчастье, но как уклониться несчастливо жениться); *Früh Eh, früh Weh* (букв. Ранний брак – ранняя печаль).

Sevgi va muhabbat haqidagi maqollar oilaviy hayot barqororligining asosi sifatida baholanadi: *Ich liebe den guten Burschen für seine Sitten* (букв. Я люблю хорошего парня за его манеры); *Den Husten und die Liebe kann man nicht verbergen* (букв. Кашель и любовь невозможно скрыть); *Wenn sich Liebende zanken, macht es ihnen nur Spass* (букв. Если любовники ссорятся, это доставляет им удовольствие); *Wenn die Liebe treibt, ist kein Weg zu weit* (букв. Если нужна любовь, дорога не далека). Ayrim maqollar o'z semantikasiga ko'ra rus va o'zbek maqollariga o'xshab ketadi: *Die Liebe ist keine Kartoffel, man kann sie nicht zum Fenster hinauswerfen* (букв. Любовь не картошка, не выкинешь в окошко); *Alte Liebe rostet nicht* (букв. Старая любовь не ржавеет). Nemis va rus maqollarida oila kurish ko'pincha xotin kishiningboyiligiga asoslanganligini ham ko'ramiz.

Shunday qilib, rus va nemis tillaridagi maqol va iboralarning lingvomadaniy tahlili oilani xalqlar tomonidan baholashda o'xshashlik va farqlarni ochib beradi. Qadimgi Rossiyada ham, Germaniyada ham ayol ro'zg'or o'chog'i qo'riqchisi, u erining tayanchidir degan ma'no anglanadi. Er esa oilaning boquvchisi va egasidir. Nemislar va ruslar madaniyatida biz o'xshashlik va farqlarni ko'rishimiz mumkin. Buni biz Yevropa xalqlari turmush tarzining ba'zi uyg'unlik tomonlari deyishimiz mumkin.

Bugungi kunda, zamonamizning jadal rivojlanishi sababli ko'plab maqollar va iboralar o'z ahamiyatini yo'qotdi va qo'llanilmay qo'ydi, chunki ayol endi o'zini nafaqat xotin va ona sifatida anglay oladi balki u har qanday sohada juda ko'p imkoniyatlarga ega. Shuningdek, ko'plab erkaklar va ayollarning moliyaviy ahvoli deyarli bir xil. Biroq, oila institutining yakuniy yo'qolishi hali sodir bo'lmagan va biz ba'zi maqol va iboralarni bilishimiz va istemolda qo'llashga harakat qilishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Долгов В.В. Быт и нравы Древней Руси. – М: Яуза, Эксмо, 2007. – С.34-35.
2. Романов Б.А. Люди и нравы Древней Руси. – М.: Наука, 1966. – С. 199-200.
3. Леднева А.В., 2010 г. __откова. – М.: Русский язык, 1978.
4. Сувонкулова Хосиётхон. Ўзбек халқ мақоллари. – Адабиёт учқунлари, 2014.
5. Landré, Vincent. Deutsche Sprichwörter & Redewendungen: Das große Wörterbuch der deutschen Sprichwörter und Redewendungen. German-2020.
6. Z.T. Narbekova, S.J. Xamraxodjayeva. Nemischa – o'zbekcha – ruscha maqol va matallar lug'ati. Toshkent 2021.
7. Abdumurotovich, Kuchiboyev Mansur. "Comparative Analysis of English Somatic Phraseologists with the Component "Heart" and Russian Phraseologists with the Component "Сердце"." Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X) 1.2 (2023): 17-21.
8. https://www.weltbild.de/magazin/inspiration/sprueche/we-are-family_Sydh2D9C9/